
EKSKLAV HUDUD AHOLISI TIBBIY KO'RIKDAN O'TKAZILDI

Xabaringiz bor, Rishton tumani tibbiyot birlashmasi xodimlari tomonidan belgilangan reja asosida mahallalarda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar tashkil qilinmoqda. Navbatdagi tibbiy ko'rik eksklav hudud sanalgan "Cho'ng'ara" mahalla fuqarolar yig'inida, ushbu hududda joylashgan "Zilol" oilaviy shifokorlik punktida o'tkazildi.

Xastalikni davolashdan ko'ra uning oldini olgan afzal. Bu tamoyil bugun O'zbekiston tibbiyotidagi eng ustuvor vazifaga aylangan. Joylarda tez-tez tashkil qilinayotgan tibbiy ko'riklar ko'plab kasalliklarni birlamchi bosqichlarda aniqlash va davolash samaradorligini oshirish imkoniyatini bermoqda. Tashkil qilingan tibbiy ko'rikda tibbiyot muassasidan tashrif buyurgan mutaxassislar, tumanning malakali shifokorlari tomonidan fuqarolar skrining tekshiruvlardan o'tkazildi.

-Yurtdoshlarimizga bir vaqtning o'zida kardiolog, nevroptolog, urolog, pulmonolog, akusher-ginekolog kabi o'nlab mutaxassislar ko'rigidan o'tish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, malakali shifokorlar jalb qilindi,-deydi tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i Bunyodbek Hojirahmatov.

- Bugungi tibbiy ko'rikdan aholimiz minnatdor, - deydi «Cho'ng'ara» MFY yoshlar yetakchisi Navro'zbek Bo'ribekov. - Chunki mahallamiz tuman markazidan juda ham olisda joylashgan. Aholining har doim ham tibbiy ko'rikdan o'tish uchun tuman markaziga borishga imkoniyatlari bo'lmaydi. Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i tibbiy ko'rik bahona xalq bilan muloqot qildi. Aholining salomatligiga oid muammolari, tibbiyotga doir fikr mulohaza va takliflari tinglandi.

Joylarda bu kabi tibbiy ko'riklar turli kasalliklarni erta aniqlash va o'z vaqtida samarali davolashga katta hissa qo'shadi.

2024-10-05 15:35:30